

O`ZBEK XALQ MAQOLLARIDA MA`NAVIYAT SEMASINING IFODALANISHI

Mamatqulova Nigora Ergash qizi

TerDU, o`zbek tili va adabiyoti yo`nalishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada paremilogik biri hisoblanmish o`zbek xalq maqollari va ularning o`ziga xos xususiyatlari haqida to`xtalinadi. Aytish joizki, o`zbek xalq maqollari tematik jihatdan xilma-xil bo`lib, ularning har biri o`ziga xos xususiyat va sifatlarga ega. Ayniqsa, ma`naviyat masalasi o`zbek xalq maqollaridan o`rin olgan keng qamrovli mavzu hisoblanadi. Maqolada ma`naviyat semasining aynan oila semasiga taalluqli jihatlarini yoritishga harakat qilindi.

Kalit so`zlar: o`zbek xalq maqollari, ma`naviyat semasi, ifoda, oila, ma`no, mazmun, mohiyat, guruhlanish.

Аннотация: В данной статье рассматриваются узбекские народные пословицы и их особенности, что является одной из паремиологий. Следует отметить, что узбекские народные пословицы тематически разнообразны, каждая из которых имеет свои особенности и качества. В частности, тема духовности широко распространена в узбекских народных пословицах. В статье делается попытка пролить свет на аспекты духовной семьи, относящиеся к семейной семье.

Ключевые слова: узбекские народные пословицы, духовность, выражение, семья, смысл, содержание, сущность, группировка.

Annotation: This article deals with Uzbek folk proverbs and their peculiarities, which is one of the paremilogies. It should be noted that Uzbek folk proverbs are thematically diverse, each of which has its own characteristics and qualities. In particular, the issue of spirituality is a wide-ranging topic in Uzbek folk proverbs.

The article seeks to shed light on the aspects of the spiritual sema that relate to the family sema.

Keywords: Uzbek folk proverbs, spirituality, expression, family, meaning, content, essence, grouping.

Barchamizga ma`lumki, inson ma`naviyati masalasi qadim-qadimdanoq barcha olim-u faylasuflarning diqqat markazida bo`lgan mavzu hisoblangan. Sababi, insonning qanday hayot kechirishi, uni nimaga sarflashi bevosita kishining ma`naviy dunyosiga bog`liq hisoblanadi[3]. Ma`naviyat falsafiy kategoriya hisoblanib, avvalo, uning mohiyatini anglash har birimizning oldimizda turgan dolzarb masala hisoblanadi. Ma`naviyatni uch guruhga ajratgan holda o`rganish uning mohiyatini tezda anglashimizga yordam beradi:

umuminsoniy
ma`naviyat

milliy
ma`naviyat

shaxs
ma`naviyati

Umuminsoniy ma`naviyat dunyodagi barcha insonlar uchun amal qiladigan ma`naviyat hayot tarzi hisoblansa, milliy ma`naviyat deyilganda, ma`lum bir elat, xalqlarning hayotiga doir ma`naviyat nazarda tutiladi. Shaxs ma`naviyati esa individual shaxsning o`zigagina taalluqli ma`naviy omil sanaladi. Kishining boshqalar bilan kechadigan munosabati, oilaviy masalalarga qanday yondashishi, ustozga bo`lgan hurmat, farzand tarbiyasi, muomala madaniyati va shu kabi qator masalalarning yechimi , darhaqiqat, bashar ma`naviyatiga bevosita bog`liqdir. Biz siz bilan tadqiq qilmoqchi bo`lgan ushbu maqolada esa paremiologik birlik hisoblangan , xalq og`zaki ijodining maxsus janrlaridan biri sanalgan o`zbek xalq maqollarida ilgari surilgan ma`naviyat masalasi, alqissa, undagi oila ma`naviyatiga doir sememalar tahlil qilinadi.

Oila – o`zbek xalqining qadim-qadimdanoq muqaddas sanalib kelingan ajib go`sashi sanaladi. Oilaga bo`lgan hurmat, uni asrab-avaylash, oilaviy munosabatlar va shu kabilar to`grisidagi fikrlar aynan o`zbek xalq maqollaridan o`rin olgan ayni mavzu hisoblanadi. Ma`naviyat semasining oila mavzusida ochib berilishi uning aynan oila davrasidan shakllanishiga asoslanadi. Ta`kidlash joizki, oila mavzusi ma`naviyat falsafiy kategoriyasining har uchala turiga (umuminsoniy, milliy, shaxs) ham mansub , nazarimizda.

Oila mavzusi orqali ma`naviyat semasi taddiq qilar ekanmiz, uni bevosita uch guruhga bo`lib o`rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

Ota-on a mavzusi

Er-xotin masalasi

Farzand mavzusi

O`zbek xalq maqollarida ota-onaga bo`lgan hurmat, ularni e`zozlash to`g`risida qator mavzular ilgari surilgan bo`lib, xususan, “Onalik uyning ori bor, otalik uyning zari bor”[5] maqolida ona oilaning yuzi, oriyati ekanligi g`oyasi aks ettirilgan bo`lsa, ota – uyning ta`minotchisi sifatida qayd etiladi. Bundan tashqari, “Onali yetim – gul yetim, Onasiz yetim – tul yetim” [5]paremiologik ifodasida inson bolasi ona bilan aziz ekanligi g`oyasi ilgari suriladi.

Yuqorida qayd etib o`tganimizdek, oila mavzusining yana bir bo`limi sifatida er-xotin masalasiga bag`ishlanadi. Ushbu mavzu yuzasidan ham xalqimizda qator maqollar mavjud bo`lib, ularning aksariyatida ayol kishining er kishini to`gri yo`lga soluvchisi ekanligi haqida maqollar keltiriladi. Jumladan, “Xotin – bo`yin, er – bosh”[5] maqolida ayol kishi bo`yin bo`lishi, bu bo`yin qay tomonga burilsa, bosh ham shu tomonga qarab harakatlanishi, ya`ni ayol kishi erini qay tomon bursa, shu

tomon qarab harakat qilishi haqidagi g`oyalar ilgari surilgan bo`lsa, “Xotin – arning vaziri”[5] maqolida ham aynan shu g`oya o`z aksini topgan.

Ma`naviyat sememasining yana bir semaviy guruhi farzand masalasiga bag`ishlanadi. O`zbek xalq maqollarida farzand mavzusida ilgari surilgan g`oyalar o`zbek xalqi orasida farzandning naqadar laziz ne`mat ekanligidan dalolat beradi. “Bolali uy – bozor, bolasiz uy – mozor”[5] deya ifodalagan dono xalqimiz inson hayotining mazmuni bola ekanligini ifodalaydi. Yoki bo`lmasa “Bolali uyda gap yotmas” mazmunidagi maqollarda bolaning sof tabiat, samimiyligi, beg`uborligiga ishora qilinadi.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, o`zbek xalq maqollarida ilgari surilgan ma`naviyat semasi bugungi kunda tarbiyaviy , odob-axloq jihatidan ham barchamiz uchun dolzarb hisoblanib, ushbu mavzuning ta`lim jarayoniga tatbiq etilishi ta`lim sifatining yanada samarali bo`lishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. -Т., 2010.
2. Рустамов А. Сўз хусусида сўз. -Т., 1987.
3. Садриддинова М. Лексика узбекских пословиц и поговорок. АҚД. – Ташкент, 1985.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. И-В жилдлар. -Т.: ЎМЕ,2008.
5. Ўзбек халқ мақоллари. ИИ томлик. -Т.: Фан, 1987. Итом.
6. Ўзбек халқ мақоллари. –Т., 1981.
7. Ҳусаинова Ф. Ойдин Ҳожиеванинг мақол ва иборалардан фойдаланиш маҳорати // Ўзбек тили ва адбиёти. 2009, 2-сон. 90-б.
8. Шоабдураҳмонов
9. Ш., Шораҳмедов Ш.. Ҳикматнома. -Т., 1990.